

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING SENSOR INTEGRATSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Usmanova Feruza Shavkat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universitetining

“Defektologiya” fakulteti, “Logopediya” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishida sensor integratsiyaning roli, sensor tizimlardagi buzilishlarning nutqqa ta‘siri va korreksion mashg‘ulotlar texnologiyasi ilmiy asosda yoritiladi. Sensor integratsion yondashuv logopedik ish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sensor integratsiya, nutq nuqsoni, maktabgacha yosh, logopediya, motorika, rivojlantirish texnologiyasi, sezgi tizimlari.*

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ СЕНСОРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Усманова Феруза Шавкат кизи

Ташкентский Международный Химический Университет Факультет

«Дефектология», направление «Логопедия» Магистрант 1-го курса

Аннотация: *В статье научно обоснована роль сенсорной интеграции в развитии детей дошкольного возраста с речевыми нарушениями, влияние нарушений сенсорных систем на речь и технология коррекционного обучения. Обосновано, что сенсорно-интегративный подход служит повышению эффективности логопедической работы.*

Ключевые слова: *сенсорная интеграция, дефект речи, дошкольный возраст, логопедия, моторика, технология развития, сенсорные системы.*

THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING SENSOR INTEGRATION IN PRESCHOOL CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS

Usmanova Feruza Shavkat qizi

Tashkent Chemical International University

Faculty of “Defectology”, 1st year master of “Speech Therapy”

Abstract: *The article discusses the role of sensory integration in the development of preschool children with speech disorders, the impact of dysfunctions in sensory systems on speech, and the technology of corrective developmental activities. It provides a*

scientific explanation of how sensory-integration-based approaches enhance the effectiveness of speech therapy.

Keywords: *sensory integration, speech disorder, preschool age, speech therapy, motor skills, developmental technology, sensory systems.*

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishidagi turli buzilishlar so'nggi yillarda tez-tez uchrab turibdi. Tadqiqotlarga ko'ra, nutqning to'g'ri shakllanishi bolaning sezgi-idrok tizimlarining yetukligiga bevosita bog'liqdir.³¹ Sensor integratsiya jarayoni sust bo'lgan bolalarda nutq tovushlarini ajratish, artikulyatsion harakatlarni boshqarish va idrokning barqarorligi bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu bois, sensor integratsiya texnologiyalarini nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda qo'llash zamonaviy logopediyada muhim o'rin tutadi.

Asosiy qism: Sensor integratsiya nazariyasi A. Ayres tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra markaziy asab tizimi turli sensor ma'lumotlarni bir butun idrok jarayoniga birlashtiradi³². Ushbu mexanizm buzilganda:

fonematik eshituv sustlashadi;

vestibulyar tizimning zaiflashuvi muvozanat muammolarini keltirib chiqaradi;

taktil sezgi buzilishi motor rivojlanishga salbiy ta'sir qiladi;

ko'rish-motor koordinatsiyasi past bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi nutqning shakllanishini murakkablashtiradi³³. Nutq nuqsoni bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning ko'rinishlari aynan ilmiy tadqiqotlarda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda quyidagi muammolar keng uchrashi ta'kidlanadi:

- Eshituv differentsiatsiyasi buzilishi – tovushlarni farqlashda qiynalish;
- Taktil sezgirlikdagi nomutanosiblik – haddan tashqari sezuvchanlik yoki sust sezuvchanlik;
- Vestibulyar tizimdagi buzilishlar – fazoviy orientatsiya qiyinligi;
- Proprioseptiv tizim sustligi – harakat kuchi va yo'nalishini boshqarishdagi muammolar.

Nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyatida eshituv analizatorining rivojlanishidagi qisqa muddatli yoki barqaror buzilishlar aniqlanadi. Ayniqsa fonematik eshituv sustligi tovushlarni farqlash, nutqni tinglash, o'xshash fonemalarni ajratib olish jarayonlarida qiyinchilik tug'diradi. Sensor integratsiya testlari davomida ko'plab bolalarda tovush manbasini aniqlash, tovush kuchi va ritmini ajratish bo'yicha ham qiyinchiliklar kuzatilgan.

Ko'rish tizimidagi buzilishlar asosan ko'rish-motor koordinatsiyasida namoyon bo'ladi. Bu bolalarning chizish, yo'l bo'ylab yurish, geometrik shakllarni ajratish, qalamni boshqarish kabi amaliy faoliyatlarda qiyinchilik ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

³¹ Qodirova R., Yo'ldosheva Z. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2020

³² Ayres A.J. Sensory Integration and the Child. Los Angeles: Western Psychological Services, 2005.

³³ Vinarskaya E.N. Logopediya asoslari. Moskva, 2017.

Ushbu buzilishlar o'z navbatida yozma nutqga tayyorgarlik jarayonini ham murakkablashtiradi.

Taktil tizimdagi nomutanosibliklar sensor integratsiyaning eng muhim ko'rinishlaridan biri sanaladi. Ayrim bolalarda qo'l tekisliklarga ortiqcha reaksiya beradi, boshqalarda esa aksincha, teginishni yetarlicha sezmaslik kuzatiladi. Bu artikulyatsion apparat harakatlarini boshqarish jarayoniga ham salbiy ta'sir qiladi.

Proprioseptiv tizimning sustligi bolalarda harakat kuchi, yo'nalishi, mushak tarangligi ustidan nazoratning yetishmasligiga olib keladi. Natijada artikulyatsion harakatlarning aniqligi pasayadi, tovushlar buzilib talaffuz qilinadi.

Albatta ushbu buzilishlar bolaning nutqiy faoliyatini rejalashtirish, tovush chiqarish va nutqni bog'lanishli tashkil etish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda sensor tizimlar o'zaro uyg'unligini tiklash va nutq rivojlanishiga sharoit yaratish, sensor integratsiyani shakllantirish texnologiyasining asosiy maqsadidir. Shu nuqtaiy nazardan kelib chiqqan holda sensor integratsiyani shakllantirish texnologiyasi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- Eshituv, taktil, vestibulyar va proprioseptiv tizimlarni faollashtirish.
- Fonematik eshituvni shakllantirish.
- Ko'rish-motor koordinatsiyasini rivojlantirish.
- Mayda motorika va artikulyatsion motorikani faollashtirish.
- Nutqiy jarayonlar — leksik, fonetik va grammatik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.

Sensor integratsiya texnologiyasi individual yondashuvga asoslanadi. Shuning uchun dastlab bolaning quyidagi ko'rsatkichlari batafsil o'rganiladi:

- sensor profil testi;
- fonematik eshituv darajasi;
- ko'rish-motor koordinatsiyasi;
- vestibulyar tizimning barqarorligi;
- taktil sezgirlik darajasi;
- mayda motorika rivoji.

Har bir ko'rsatkichning natijalari logopedik korreksiya dasturini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Natija. Ta'kidlash joizki maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning sensor integratsiyasini shakllantirish texnologiyalarini o'rganish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biridir. Xususan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tizimi sensor integratsiya texnologiyasi kompleks mashg'ulotlar to'plamidan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'langan tarzda olib boriladi.

Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar orqali maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning sensor integratsiyasini tiklash va nutqiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan kompleks, ko'p bosqichli, ilmiy asoslangan pedagogik-psixologik ishlar olib boriladi. Uning mohiyati bolaning sensor tizimlari faoliyatini

uyg'unlashtirish, nutq-motor mexanizmlarini faollashtirish, sezgi-idrok jarayonlarini optimallashtirish va nutqiy faoliyatda sifatli o'zgarishlar yaratishga qaratilgandir.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, o'tkazilgan ilmiy tahlillar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishida sensor integratsiya jarayoni markaziy ahamiyatga ega. Sezgi tizimlaridagi buzilishlar fonematik eshituv, artikulyatsion harakatlar, ko'rish-motor koordinatsiyasi va mayda motorika rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, natijada nutqning barcha komponentlarida buzilish yuzaga keladi.

Sensor integratsiya texnologiyasidan foydalangan logopedik mashg'ulotlar bolalarning:

- nutq ravonligi;
- tovush talaffuzi;
- sezgi-idrok tizimlarining muvozanati;
- motorika va koordinatsiya ko'rsatkichlari;
- emotsional barqarorligi;
- e'tibor va xotira jarayonlari sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, sensor tizimlarning uyg'un rivojlanishi nutqning fonetik, fonematik, leksik va grammatik tarkibiy qismlarini shakllantirishda kuchli neyropsixologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli mazkur texnologiya logopediya va maxsus pedagogika amaliyotida samarali korreksion-uslubiy yo'nalish sifatida qo'llanishi zarur.

Aynan senzitiv jarayonlarni tiklash orqali bola nutqining sifatli shakllanishi, muloqotga kirishish qobiliyati va ijtimoiy faolligi oshadi. Bu esa uning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli moslashishi uchun muhim poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova R., Yo'ldosheva Z. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2020.
2. Ayres A.J. Sensory Integration and the Child. Los Angeles: Western Psychological Services, 2005.
3. Vinarskaya E.N. Logopediya asoslari. Moskva, 2017.
4. Волкова Г.А. Логопедия: теория и практика. Москва, 2018.
5. Luria A.R. Neyropsixologiya asoslari. Moskva, 2016.
6. Shipitsina L.M. Sensornaya integratsiya v korreksii detey. Sankt-Peterburg, 2019.
7. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent, 2017.
8. Словарь практического психолога. Минск: Харвест, 1997. - 800с